



IQTIDORLI TALABALAR,  
MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING  
**“TAFAKKUR VA TALQIN”**

MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
**TO'PLAMI**



Buxoro - 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

**TAFAKKUR VA TALQIN**

---

**mavzusida**

**Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami**

**(II qism)**

Buxoro 2023-yil, 17-may

uni shahar obidalarining g'aribona ahvoli, shahar darvozalarining tarixiy nomlari o'zgartirilganligi juda ajablantiradi”.

V.V. Bartold Buxoro shahridagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ham kuzatuv ishlarini olib borgan. Ismoil Somoniylar dafn qilingan maqbara – Somoniylar davri me'morchilik san'atining nodir namunasidir. Bu inshoot Buxoro shahridagi eng qadimiy obidalardan biridir. Olim shu kunga qadar ushbu obida haqida biror tadqiqot olib borilmaganligini e'tirof etib, komissiya raisi sifatida Arxiv ishlari Markaziy Boshqarmasi oldiga Ismoil Somoniylar maqbarasini ilmiy jihatdan har tomonlama o'rganish masalasini qo'yadi [7]. Keyinchalik ushbu maqbaraga oid 30 ga yaqin tadqiqotlar e'lon qilinganligini tarixiy ma'lumotlar asosida o'rganishimiz mumkin.

Buxoro vohasida o'lkashunoslik ekspeditsiyalarini uyushtirgan tadqiqotchilardan V.V. Bartold, M.Y. Saidjonov, I.I. Umnyakovlar o'lkani o'rganish barobarida, o'z nigohlarini Buxoro tarixiy-me'moriy obidalariga qaratdilar. Obidalarning shakli, uslubi, muhandisligi ularni shu darajada maftun etdiki, ularni o'rganishga, o'z esdalik, qaydnama, maqola va asarlarida qayd etishga harakat qildilar. Bizga asrlar davomida o'lkada mavjud me'moriy obidalarga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirdilar. Bugungi kun nuqtai nazaridan ularning esdalik, hisobot, qaydnama, maqola, monografiya va asarlarini tadqiq etgan holga me'moriy obidalarimiz tarixini o'rganish va tahlil qilish vazifasi mavjud.

## **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri- Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан / Сочинения. – М.: Наука, 1966. Т. IV. – С. 254.
3. Qo'yiliyev U. Muso Saidjonovning “Buxoro tarixi va uning eski binolari” asari yurtimiz tarixiga oid muhim tarixiy manba // Journal of Social Sciences and Humanities Volume: 07. Issue:01/Jan-2023. Page: 70-77.

4. Boltayev A. I.I Umnyakov tomonidan Buxoro shahri tarixiy topografiyasining o'r ganilishi // Buxoro tarixi masalalari mavzusidagi Respublikla ilmiy – amaliy anjuman materiallari. - Buxoro: 2019. - Б. 31-34.

5. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековый Бухары. Сборники Туркестанского Восточного Института в честь проф. Э.А. Шмидта. – Ташкент, 1923. – С. 153.

6. Умняков И.И. Архитектурные памятники Средней Азии. Исследование. Ремонт. Реставрация. 1920-1928 г.г. – Ташкент, 1929. -С. 15-21.

7. Xudoyqulov T.B. Buxoro qadimiy darvozalari xususida V.V. Bartoldning qaydlari// “Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida” Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. – Jizzax: 2020. - B 122-125.

## **O'ZBEKISTON-ROSSIYA ALOQALARI:IQTISODIY STRATEGIK HAMKORLIGI**

*. F. M. Utayeva,*

*BuxDU, dotsenti, (PhD*

*Choriyev Yo'lchi Maxmudovich,*

*BuxDU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari  
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha 2-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik munosabatlari, ikki davlat rahbarlarining davlat tashriflari va erishilgan natijalar, shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar sohalarda olib borilayotgan samarali ishlari va Markaziy Osiyo bo'yicha qarashlari haqida qisqacha izoh berish va bugungi kunda ikki davlat o'rtasida olib borilayotgan siyosiy va tarixiy jarayonlarni tahli qilish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Strategik sheriklik, «LUKOYL», parlamentlararo hamkorlik munosabatlari, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, tarixiy omillar

O'zbekiston-Rossiya aloqalari uzoq tarixga ega. 1994-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi harbiy sohada hamkorlik qilish

to'g'risida Shartnoma, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma qabul qilindi. [2]

2003-yil O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1 mln. 149,1 mln. AQSH dollariga yetdi. Rossiyaning salkam 40 ta kompaniyasi, jumladan, "Aeroflot", "Avtovaz", "Zarubejneftgaz", "LUKOYL", "Texmashimpeks" va boshqa o'z vakolatxonalariga ega. Rossiyada o'zbek rezidentlari ishtirokida tashkil etilgan 167 korxona, shu jumladan, 72 qo'shma korxona bor. O'zbekiston — Rossiya munosabatlari sohasida, ayniqsa, aviasozlikda avvalgi kooperatsiya aloqalari saqlanib qolgan. Rossiyaning "Gazprom" aksiadorlik jamiyatlari birlashmasi bilan "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi o'rtasida strategik hamkorlik qilish to'g'risida hamda "O'zbekneftgaz" bilan "LUKOYL" o'rtasida mahsulotni taqsimlashga oid bayonnomha tayyorlash haqida imzolangan hujjatlar bu borada muhim voqeа bo'ldi.

2022 yilda O'zbekiston va Rossiyaning iqtisodiy hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. 15 sentyabr kuni mamlakatlar rahbarlari muzokaralar davomida bir qator aniq yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirishni nazarda tutuvchi keng qamrovli strategik hamkorlik to'g'risida deklaratsiya tuzdilar: siyosiy, harbiy-texnik, huquqiy, savdo-iqtisodiy, atom-energetika, mintaqalararo, transport, madaniy-gumanitar, moliya-bank sohalarida. Bundan tashqari, uchrashuv doirasida mashinasozlik, kimyo, neft-kimyo va geologiyada 4,6 milliard dollarlik investitsiya shartnomalari to'plami imzolandi. Shuningdek, Rossiya va O'zbekiston rahbarlari so'nggi yillarda ularning hamkorligi "misli ko'rilmagan darajada yuqori darajaga ko'tarilganini" ta'kidladilar.

Xalq so'zi gazetasida ham O'zbekiston Rossiya munosabatlari keng yoritilib bormoqda. [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5 mart kuni Rossiyaning «LUKOYL» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, jahonning yetakchi energetic korporatsiyalaridan biri va O'zbekiston neft-gaz kompleksining muhim investor-

«LUKOYL» bilan strategik sheriklikda sezilarli rivojlanishga erishilganini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda kompaniyaning qo'shma loyihalarga kiritgan sarmoyalari hajmi 10 milliard dollar atrofida. Yiliga 8 milliard kub metrdan ziyod tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga ega Qandim gazni qayta ishlash majmuasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Janubiy-G'arbiy Hisor va Ustyurtdagi konlarni o'zlashtirish davom etmoqda. Bundan tashqari, «LUKOYL» mamlakatimizdagi ijtimoiy dasturlarni faol qo'llab-quvvatlamoqda.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kompaniyaning korporativ boshqaruv va neft-gaz tarmog'ida raqamli texnologiyalarga o'tish borasidagi tajribasi va ilg'or yechimlarini jalb etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston hududida geologiya-qidiruv sohasida hamda uglevodorod konlarini, jumladan qazib olinishi qiyin bo'lganlarini o'zlashtirish borasida kooperatsiyani mustahkamlash imkoniyatlari muhokama qilindi.

Ilmiy izlanishlar hamda energetika tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlik qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi”

O'zbekiston va Rossiya davlatlari o'rtasida ikki tomonlama strategik hamkorlikning qariyb o'ttiz yillik davri mobaynida nafaqat iqtisodiy hamkorlik balki boshqa sohalarda ham ko'plab shartnomalar imzolanmoqda. Rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

## **ADABIYOTLAR**

1. [uz.m.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston](http://uz.m.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston).
2. V. Tyurinkov. R.G'ulomov. Istiqlol yilnomasi odamlar sanalar va voqealar (1991-2001) T. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.-B. 527.
3. <http://press.natlib.uz>. Xalq so'zi. 2020-yil 6-mart № 48 (7550)

<b>B.K. Oltinov</b>	Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan paxta siyosati tarixiga doir.....	77
<b>N.B. To'rayeva</b>	Fransiya va O'zbekiston aloqalarida YUNESKOning o'rni .....	80
<b>Sh.Q. Ismoilov</b>	Qirg'iziston o'zbeklari, ularda kechgan demografik o'zgarishlarning tarixiy ildizlari va asosiy bosqichlari.....	82
<b>D.Sh. Murodova</b>	Buxoro viloyati davlat arxivi fondlarida kasb-hunar ta'lifi muassasalari faoliyatining aks etishi.....	85

**70220303 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (mamlakatlar bo'yicha)**

<b>S.S. Sattorov</b>	Buxoro me'moriy obidalarining shakllanishi, me'morchilikdagi o'ziga xos jihatlar.....	88
<b>A.A. Jo'raboyev</b>	"Buxoro axbori" gazetasi muharrirlari faoliyati.....	97
<b>J.O. Xayriyev</b>	Tarixi Mullozoda» kitobidagi Buxoro mozorlari topografiyasi.	101
<b>S.A. Aslonov</b>	"Hofiz Tanish Buxoriy va uning ilmiy merosi".....	105
<b>U.R. Qo'yliyev</b>	XX asrning 20 – 30 yillarida Buxoro me'moriy obidalarining o'rganilishi.....	111
<b>F. M. Utayeva Y.M. Choriyev</b>	O'zbekiston-Rossiya aloqalari: Iqtisodiy strategik hamkorligi..	115
<b>K. Raximov A. G'ulomov</b>	Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari Somoniylar davri haqida muhim manba.....	118
<b>Sh. Qudratov B. Muyiddinov</b>	Xorazmshohlar harbiy san'ati va qo'shin tuzilishida Buxoro va boshqa shaharlarning tutgan o'rni.....	120
<b>F.I. Ergashov</b>	O.A.Suxareva esdaliklarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot talqini.....	122
<b>A.T. Qayumova</b>	Abu Zayd Muxammad Ibn Xaldun nodir tarixshunos olim.....	125
<b>R.S. Himmelov</b>	Mirzo Sirojiddin Hakimning tabiblik faoliyati.....	128

**70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

<b>Y.H. Teshayeva</b>	Oila – muqaddas tarbiya maskani .....	131
<b>A.H. Boltayev J. Odilov</b>	Sitorai Mohi Xosa saroyining muzeyga aylantirilish tarixi .....	134
<b>G.A. Qamariddinova</b>	Diniy marosim va urf-odatlardagi transfarmatsiya jarayonlarining etnologik tahlili .....	138
<b>M.B. Qurbonova N.A. Oripova</b>	Xotin-qizlar bosh kiyimlarining tarixiy etnografik o'rganilishi xususida (Qoraqalpoqlar misolida) .....	143
<b>Z.Z. G'aybullayeva</b>	Ma'naviy hayotimizda qadimiylar qo'lyozma manbalarning o'rni va ularga qaratilayotgan e'tibor .....	147